

Kirish

*Farzandlarimiz-bizning kelajagimiz.
Xalqimiz ertasining qanday bo'lishi
farzandlarimizning bugun ta'lim va
tarbiya olishiga bogliq.*

Islom Karimov.

“Yurtimizda har bir inson uchun, - deydi Prezidentimiz I.A.Karimov, - vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Shu bois oila va mafkura tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-ahloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini aniqlab yetmasdan, oilaga mi'llat manfaati nuqtai nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz”. Ma'lumki, inson oilada dunyoga keladi va oilada kamol topadi. Farzandni tarbiyalash birinchi navbatda ota-onaning asosiy burchidir. Ular ayni vaqtda tarbiyachi hamdir. Chunki insondagi eng yaxshi fazilatlar shu qutlug' dargohda tarkib topadi.

Bu tarbiyani ta'lim bilan yo'g'riltirib, davom ettiruvchilar biz o'qituvchilardurmiz. Ota – ona bilan o'qituvchining ezgu maqsadi bittadir: ota - ona farzandining kamolini ko'rishni istasa, o'qituvchi bo'lsa shu o'qituvchining jamiyatda o'z o'rnini topib, yetuk inson bo'lishini xohlaydi. Demak, oila bilan maktabning ezgu maqsadlari bitta ekan, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik yaxshi yo'lga qoyilmog'i kerak. Bu uslubiy qo'llanmada ota-onalar va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikning ayrim qirralari aks ettirilgan.

OTA – ONALAR MAKTABI

Ota-onani birinchi tarbiyachi deb aytdik. Xo'p, shunday ekan buyuk mutafakkirlarimizdan biri: *"Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i kerak"* deganlarida naqadar haq edilar.

Oilada ota-ona ahil bo'lsa, sog'lom muhit qaror topadi. Sog'lom muhitda odob-ahloqli, mehnatsevar, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarga hurmat bilan qaraydigan yoshlar kamolga yetadi. Hamma oilalarda ham muhit sog'lommi? Afsuski, yo'q.

Oilalarda sog'lom muhit yaratishda biz o'qituvchilarning ham ornimiz kattadir.

Ota - onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatib, ularni ko'proq maktabga chorlamog'imiz kerak. Qachonki muammo tug'ilganida uni hal qilish uchungina emas, balki bilimdonlik musobaqalari, ochiq darslar, ko'ngilochar tadbirlar tashkil qilib ota-onalarni taklif etmog'imiz kerak. Bunda ota-ona o'z farzandini boshqa o'quvchilarga solishtiradi, yashirin qobiliyatlaridan xabardor bo'ladi, sinfdagi o'rnini biladi. Agar farzandi ilg'or bo'lsa faxrlanadi, sustroq bo'lsa ilg'orlarga yetkazish uchun intiladi.

Maktab nafaqat bilim, balki tarbiya o'chog'i hamdir. Biz o'qituvchilar ota-onalar bilan yaqin hamkor, hamfikir bo'lsak yaxshi yutuqlarga erishamiz. Prezidentimiz I.A.Karimovning: *"Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodiy bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan jahonni qoyil qilishi lozim"*, -degan gaplari bugungi kunda o'z isbotini topmoqda.

Yoshlarimizning mukammal bilim olishlari uchun juda katta imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlardan keng va unumli foydalanishi uchun farzandlarimizga sharoit yaratib berishda qo'llab – quvvatlashda ota-onaning mas'uliyatlari kattadir.

Ota-ona o'z mas'uliyatini anglab yetsa, o'qituvchilar esa bor bilimini o'quvchiga astoydil o'rgatsa, yurtimizni obod qiluvchi, oilaning, ota-onaning baxti, quyoshi bo'lib nur taratuvchi farzandlarni voyaga yetkazgan bo'lamiz.

BILIMLI FARZAND OILANI OBOD QILADI

1-sinflar uchun

(Sahna bayramona bezatilgan. Tadbirga ota-onalar va ustozlar tashrif buyurgan.
O'ktam Ahmedovning „Farzandim” qoshig'i yangramoqda)

O'qituvchi: Oллоhga ming bora shukrlar bo'lsinki, yurtimiz tinch, hayotimiz farovon. Yurtimiz kundan – kunga, gullab-yashnab bormoqda.

Qurilayotgan baland, hashamatli binolar, keng ravon yo'llar, go'zal oromgohlarning barchasi biz uchun, bizning farovon hayot kechirishimiz uchundir. “Mustahkam oila yili”ning davomi sifatida 2013-yil muhtaram Prezidentimiz tomonidan “Obod turmush yili” deb e'lon qilinishi bizni yanada quvontirdi. Bu yilni nomlanishidan bilinib turibdiki, yurtimiz yanada go'zallashib, hayotimiz yanada farovon bo'ladi.

Muhtaram yurtboshimiz nafaqat obodonlashtirish ishlariga, balki barcha – barcha sohaga alohida e'tibor bilan qaramoqda. Har qaysi sohada bo'layotgan ulkan o'zgarishlar kishini zavqlanib mehnat qilishga va ijodkorlikka chorlaydi.

Prezidentimizning bir gapi bor: *“Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimdon, don ova albatta, baxtli bo'lishlari shart”*. Ta'lim sohasiga qaralayotgan katta e'tibor, farzandlarimizning kelajagi, o'qishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar har bir ota-onani quvontiradi. Bunday jannatmakon yurt qayda bor, bunday elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan yurtboshi qayda bor, albatda olloh nazar solgan yurtda bor. Biz shunday olloh nazar solgan xalq ekanmizki, bizga shunday yurtboshimizni, jannatmakon yurtni nasib etdi. Shuning shukironasi sifatida ham biz ustozlar kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizga astoydil bor bilimimizni bermog'imiz kerak. Aqlli, odobli farzand ota-onaning baxtidir. Ota-ona-bog'bon, farzand esa niholdir. Niholni qanchalik yaxshi parvarish qilsang, u chiroyli o'sib bog'ni, ya'ni oilani obod qiladi.

Xo'sh bizning kelajagimiz bo'lgan, yurtimiz ravnaqiga ravnaq qo'shadigan, oilamizni faxri bo'lib, uni obod qiladigan bolajonlarimiz qanday o'qiyapti, yuksak ishonchimizni oqlay oladimi? Shuni o'zingiz ko'rib amin bo'ling degan maqsadda siz ota-onalarni bugungi “Baxtli oilaning baxtli farzandlari” deb nomlangan tadbirimizga taklif etdik.

Marhamat, tadbirimizni ko'rib tomosha qiling.

O'quvchi: *Bizning oila obod,
Hamma quvnoq, hamda shod.
Dadamlar-ilg'or ishchi,
Oyim-mohir tikuvchi.
Katta akam-xonanda,
Kichik akam-sozanda.
Men-chi, dono qizchaman,
A'lovchi o'quvchiman.*

Raqs : “Quvnoq” ijro etiladi.

O'quvchilar vatan, oila, maktab, bilim haqida she'rlar aytishadi.

O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar, har bir guruhga sardorlar saylanadi.

Guruhlar o'zaro 5ta shart bo'yicha bellashadilar. Shartlardagi topshiriqlar, savollar birinchi sinf o'quv rejasi bo'yicha 2013-yil 31-yanvargacha bo'lgan mavzulardan olingan.

1. Savol-javob sharti
2. Maqol aytish sharti
3. Tez aytish sharti
4. Rasm chizish
5. O'qish texnikasi
6. Sardorlar bellashuvi

Musobaqa boshlandi.

1-shart:

1-guruhga savollar:

1. "Vatan-bu" sherini yoddan ifodali yod aytib bering
2. Amur Temur bobomiz yurt obodligi uchun nima ishlar qilgan?
3. Tovushlar qoidasini ayting.
4. Noma'lim qo'shiluvchi qanday topiladi $\square + 4 = 10$
5. G'ayrat – shijoat nima?
6. Vatan deb qayerni aytamiz?
7. Foydali hasharotlarni ayting.

2-guruhga savollar:

1. "O'zbekiston askarlari" she'rini ifodali yod ayting
2. Mirzo Ulug'bek bobomiz nimalarni o'rgangan ?
3. Harflar qoidasini ayting.
4. Kamayuvchi qanday topiladi? $\square - 6 = 3$
5. Mardlik deganda nimani tushinasiz ?
6. Vatanga mehr nimadan boshlanadi ?
7. Zararli hasharotlarni ayting.

3-guruhga savollar

1. "Ota rozi-vatan rozi" she'rini ifodali yod ayting
2. A. Navoiy bobomizdan nimani o'rganamiz?
3. Unli tovushlarni ayting
4. Ayiriluvchi qanday topiladi? $10 - \square = 6$
5. Salomlashishning ma'nosi nima ?
6. O'zbekiston qachon mustaqil bo'lgan?
7. Qish oylarini ayting

2-shart:

Maqol aytish shartiga kora har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib maqol aytib bellashadilar.

3-shart:

Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqadi, "Tursunda to'rtta to'rtqop bor" tez aytishni kim ko'p aytish bo'yicha bellashadi.

4-shart:

Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, biri "Kuz" faslini, biri "Qish" faslini, biri "Bahor" faslini rasmini chizishadi.

5-shart:

O'qish texnikasi bo'yicha bellashuviga ham har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, bir matnni kim to'g'ri, ravon, ifodali va tez o'qish shartini bajaradi.

Shartlar tugab, navbat endi "Sardorlar bellashuvi"ga beriladi.

Har bir guruh sardorlariga beshtadan tezkor savol beriladi.

1-guruh sardoriga tezkor savollar:

1. 14-yanvar qanday kun?
2. Tovushlar necha xil bo'ladi?
3. Hamma tomoni teng bo'lgan geometrik shakl nima deyiladi?
4. Kilogramm qanday o'lchov birligi?
5. Mart, aprel, may qaysi fasl oylari?

2- guruh sardoriga tezkor savollar.

1. 8-dekabr qanday kun?
2. Unli tovushlar nechta?
3. To'rtburchakning nechta tomoni bor?
4. Litr qanday o'lchov birligi?
5. Bir hafta necha kun?

3- guruh sardoriga teskor savollar

1. 1-sentabr qanday kun?
2. Undosh tovushlar nechta?
3. Ko'pburchakning hamma tomonining uzunligi yig'indisi nima deyiladi?
4. Santimetr qanday o'lchov birligi?
5. Iyun, iyul, avgust qaysi fasl oylari?

Qo'shiq ijro etiladi: "O'zbekiston"

G'oliblar e'lon qilinib taqdirlanadi.

Mana aziz ota-onalar, savollarga burro-burro javob berayotgan, har bir topshiriqlarni astoydil bajarayotgan aqlli o'quvchilar sizning farzandlaringiz. Bular sizning avlodingiz davomchisi, oilangiz baxtidir. Siz albatta faxrlaning, farzandingiz sizning baxtingizdir.

O`qish. Ochiq dars.

(3-sinflar uchun)

Mavzu: Bo`lim yuzasidan savol va topshiriqlar.

**Ta`limiy maqsad:** *Bo`lim bo`yicha o`rganilgan bilimlarni mustahkamlash*

Tarbiyaviy maqsad: *Tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.*

Rivojlantiruvchi maqsad: *O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, o`qigan asarlari bo`yicha xulosa chiqarishga o`rgatish.*

Dars tipi: *O`rganilgan bilimlarni mustahkamlash.*

Dars usuli: *Suhbat, interfaol, savol-javob, aqliy hujum.*

Dars jihozi: *Darslik „Barkamol avlod“ bog`i maketi.*

Bezatilgan sahna.

1. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish.

O`qituvchi: *Kular issiq yuzingiz,
Porlab turar ko`zingiz.
Aziz bolajonlarga
Assalomu-alaykum.*

O`quvchilar: *Jonkuyar, shirinzabon,
Ham mehribon, bilimdon.
Qadrdon ustozlarga,
Assalomu-alaykum.*

b) Navbatchi axboroti....

**O`qituvchi:** Salom bilan boshlangan har qanday ish xayrli bo`ladi. Salom so`zi inson odobining bezagidir. „Yaxshi so`z jon ozig`i“ deganlaridek, shirin so`z insonga huzur beradi. Biz ravon, chiroyli so`zlashishni o`qish darsida o`rganamiz.

Hozir darsimiz o`qish darsi.

– Bolajonlar biz o`qish darsida DTS bo`yicha nimalarni o`rganamiz?

1- **o`quvchi:** To`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishni.

- 2- **o`quvchi** : O`qigan asarlarimizdagi voqea-hodisalarni va ulardan xulosa chiqarishni.
- 3- **o`quvchi**: Matn ustida ishlashni.
- 4- **o`quvchi**: Yuksak odob-ahloqni.
- 5- **o`quvchi**: Go`zallikka, poklikka, mehr-muhabbatni.
- 6- **o`quvchi**: San`at asarlarini qadrlashni.
- 7- **o`quvchi**: Ma`naviy yetuk inson bo`lishni.

**O`qituvchi**: Xo`p, ma`naviy yetuk inson bo`lish, inson avvalo ma`naviyat so`zi nima ekanligini bilishimiz kerak.

Savol: Ma`naviyat so`zi qanday ma`noni anglatadi?

Javob:

Savol: Ma`naviyat insonni nimaga chorlaydi?

Javob: Ma`naviyat insonni ruhan poklanishga, qalban ulgayishga chorlaydi.

**O`qituvchi**: Siz ham, o`sib ulgayib ma`naviyatli inson bo`ling!

M *Ma`noli so`zga doim*

A *Aqlli bo`l muloyim*

N *Nominga munosib bo`l*

A *Ajdodlarga sodiq bo`l*

V *Vatan mehrini oqla*

I *Insoniy burching saqla*

Y *Yurtni go`zal obod et*

A *Asrab avaylab bog`et*

T *Tarixing doim yod et*

M A ` N A V I Y A T so`zi yoziladi.

– Ma`naviyat yana insonni yuksak istak va maqsadlar sari boshlaydi.

– Bolajonlar sizning istak va maqsadlaringiz?

O`quvchilar:

*Istagimiz – ilmu odob o`rganish,
izlanib, o`qib unish.*

*Maqsadimiz – Barkamol inson bo`lib,
el yurtga xizmat qilish,
O`tmishni e`zoz aylab,
Davlatni yuksaltirish.*

**O`qituvchi**: Maqsadimiz juda ulkan ekan. O`tmishni e`zozlash xayrlidir. Shunday ekan o`tmishimizga ya`ni tariximizga bir nazar tashlaylik. Biz shunday qudratli xalqimizki, ne-ne ulug` allomalarning ajdodlarimiz.

Har birini tarixda alohida o`z o`rni bor. Birgina Alisher Navoiy hayotiga nazar tashlasak yuragimiz faxrga to`ladi.

Bizni faxrimiz bo`lgan o`zi kim va qanday inson bo`lgan, bir eslab ko`raylikchi.

Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topganlar?

**O`quvchi:** Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug`ilgan. Shoirning otasi G`iyosiddin Kichkina temuriylar saroyida amaldor edi. Onasi shahzodalarga enagalik qilar edi.

**O`qituvchi:** Alisherning oilasida muhit qanday edi? Ota-onalari ko`proq nimalarga qiziqar edi?

**O`quvchi:** Alishening otasi shoir tabiat kishi edi. U ko`proq adabiyotga qiziqar edi. Oiladagi muhit Alisherga bolaligidanoq she`riyatga, adabiyotga qiziqish uyg`otdi. Alisherning uyida shoirlar tez-tez to`planishib she`rlar o`qishib, mushoiralar bo`lar edi. Shunday yig`ilishlarda 3-4 yoshli Alisher ayrim baytlarni yoddan o`qib o`tirganlarni hayratda qoldirar edi.

**O`qituvchi:** Alisher yoshligida qanday bola bo`lgan, nimalar bilan shug`ullangan?

**O`quvchi:** Yosh Alisher o`tkir zehqli, o`ta odobli, hozir javob, qobiliyatli bola edi. U yoshligidan juda ko`p kitob o`qir edi. U 9 yoshidan boshlab she`rlar yozgan.

**O`qituvchi:** Alisherning ustози shoir Lutfiy uning qaysi g`azaliga o`zining she`rini almashtirmoqchi bo`lgan?

**O`qituvchi:** Alisher 12 yosh edi. Bir kuni u ustози Mavlono Lutfiyni oldiga boradi. Lutfiy bundan xursand bo`ladi va Alisherdan yangi yozgan g`azalidan o`qib berishini so`raydi. Navoiy yangi g`azalidan o`qib beradi.

Alisher Navoiy:

Orazin yopg`och ko`zimdin sochilur
har lahza yosh
Bo`ylakim, paydo bo`lur yulduz, nihon
bo`lg`och quyosh.

Lutfiy: — Ofarin, O`g`lim,
„Men o`zimning o`n-o`n ikki ming misradan iborat devonimni shu bir g`azalga almashtirgan bo`lar edim”.

**O`qituvchi:** Ko`rdingizmi, bolalar A. Navoiy o`tkir qalam sohibi ekanligi uning yoshligidan yozgan g`azallaridan namoyon bo`lgan, shuning uchun ham o`lmas asarlari bizgacha yetib kelgan.

O`quvchi:

*Ko`p jahongir ko`rgan bu dunyo,
Barchasiga guvoh yer osti.
Lekin do`stlar she`r ahli aro,*

Jahongiri bo`lgan ham rosti.

*Besh asrkim nazmiy saroyi,
Titratadi zanjirband bir she`r.
Temur tig`i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo`ldi chamanim manim,
O`zbekiston, Vatanim manim.*

**O`qituvchi:** Alisher Navoiy birinchi qaysi kitobni sevib o`qigan?

**O`quvchi:** Alisher kitob o`qishni juda sevar edi. Birinchi bo`lib unga otasi „ Qush tili” kitobini olib bergan. U kitobni shunday sevib o`qir ediki, hatto so`zma-so`z yodlab olar edi.

**O`qituvchi:** Navoiy bobomiz bolalik chog`idan kitobga mehr qo`ygan.

Sahna ko`rinishi:

Navoiy kitob o`qib o`tiradi.

Otasi: — O`g`lim, bu kitobni yirtmangiz, bu kitobni men uchta qo`yga sotib olganman.

O`g`li: — Otajon, men bu kitobni, yirtmasmen, o`qib o`rganurmen.

Otasi: — Agar o`qishni istasangiz yana ko`p kitoblar keltirurmen. Kitob shunday xazinaki, ko`p narsalarni bilib olursiz.

**O`qituvchi:** Alisher o`ziga qanday taxallus tanladi?

Sahna ko`rinishi:

— Alisher Navoiy bog`da sayr qilib yurib baland ovoz bilan g`azal o`qiydi.

Alisher:

*G`urbatda, g`aribu shodmon bo`lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo`lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulga gar tikondek oshiyon bo`lmas emish.*



Bulbul: — Ey xushovoz shoir, sen o`qigan she`rlar bulbullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Ismingni bilsam bo`ladimi?

Alisher: Men, Alisherman.

Bulbul: Bildim, bildim, yangi chiqqan shoir ekansizda. Endi o`zingizga bir chiroyli navo tanlab, she`rlaringiz oxiriga taxallusingizni yozib qo`ying.

**O`quvchi:** Alisherga bulbulning navo degan so`zi yoqib qolibdi. Shundan keyin yozgan g`azallariga o`z taxallusini „Navoiy” deb yozadigan bo`libdi.

**O`qituvchi:** Alisher Navoiy o`zbek tilini benihoya boyligini, go`zalligini, nutq madaniyatini yuksakligini o`z g`azallarida ko`rsatib bergan.

Mir Alisher Navoiy so`z haqida shunday deganlar:

O`quvchi:

*So`zdurki, nishon berur o`likka jondir,
So`zdurki, xabar berur jonga janondir.
Insonni so`z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guxari shafiqroq yo`q andin.*

**O`quvchi:** Mir Alisher Navoiy bobomiz birinchi bo`lib ona tilimizda „Xamsa” (besh doston) yozganlar:

1. Hayrat-ul Abror
2. Farhod va Shirin
3. Layli va Majnun
4. Sab`ai Sayyor
5. Saddi Iskandariy

**O`quvchi:** Bobomiz o`z asarlarida insonlarni halollikka, mardlikka, yaxshilikka chaqirganlar.

Alisher: *Odami ersang demagil odami,
Onikim yo`q xalq g`amidin g`ami.*

**O`quvchi:** Bobomizning ko`pgina she`riy misralari xalq maqollariga, hikmatlariga aylanib ketgan.

N. *Necha buyuk aylasang so`zingni,
Ondin buyuk etgaysan o`zingni.*

A. *Aytar so`zni ayt,
Aytmas so`zdan qayt.*

V. *Vafosizda hayo yo`q,
Hayosizda vafo yo`q.*

O. *Olim bo`lsang, olam seniki.*

I. *Izzat topmas kimki qanotsiz erur,
Har kimda hasad bo`lsa rohatsiz erur.*

Y. *Yigitlik chog`ingda yig`gil ilm mahzani,
Qarilik chog`ida sarf qilg`il ani.*

**O`qituvchi:** Husayn Boyqaro Hirotga podshoh etib tayinlanadi. Do`sti Alisher Navoiyni o`ziga vazir qilib oladi. U vazirlar ichida eng hozir javobi edi. U faqat xalqni, yurt farovonligini o`ylar edi. Xalqqa juda ko`p yaxshiliklar va yangiliklar qilib el mehrini qozonganlar. Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirot shahrida kasallikdan so`ng vafot etgan.

O`quvchi:

*Eng ulug` bobomizdir,
Hazrati Navoiy.
Saboqlarin o`rganish,
Burch bizga oily.
Ustoz bizga qoldirgan,
Ko`plab she`r g`azal.
Ustozning g`azallari,
Misoli asal.*

O`quvchi:

*So`zingiz buyukdir, o`zingiz buyuk,
Buyuk merosingiz iftixorimiz.
Biz uchun har nedan ortiqroq suyuk,
Yozgan asaringiz aytgan so`zingiz.*

*Yurakdagi faxrim, g`ururim sizsiz,
Bobojon ruhingiz bizni qo`llasin.
Avlodlar qalbida so`nmas sham kabi,
Nurli manzillarga bizni yo`llasin.*

– **O`qituvchi :** Alisher Navoiy bobomizning ruhi hamisha bizni qo`llasin va nurli manzilga yo`llasin.

Yangi dars bayoni:

**O`qituvchi :** Bugungi darsimiz „ Bo`lim yuzasidan savol va topshiriqlar”
Darsimizda ulkan maqsadimiz sari nurlil manzillarga intilib „ Barkamol avlod” bog`iga sayr qilamiz. Sayrga ketishdan oldin guruhlarga bo`linib olamiz.

I-guruh: „G`uncha”

II-guruh: „Jilg`a”

III-guruh: „Nihol”



Guruhlarga sardorlar saylanadi. Guruhlar quyidagi shartlar bo`yicha bellashadilar:

1. Bo`lim yuzasidan savol va topshiriqlar.
2. Matn tuzish. „Bahor”, „Navro`z” mavzularida.
3. Test.
4. Sardorlar bellashuvi.

Musobaqani boshlaymiz.

1. Savollar: „G`uncha” guruhiga.

1. Bahor fasli qachondan boshlanadi?
2. Bahorda qaysi qushlar uchib keladi?
3. O`rik nima bilan do`stlashadi?
4. „Bahor keldi” she`rini ayting?
5. „Rasm” hikoyasida. O`qituvchi qanday vazifa beradi?

„Jilg`a” guruhiga.

1. Bahorda ob-havo qanday bo`ladi?
2. „Nilufar” ertagida dehqon va ayol nimani orzu qiladi?
3. Tomchi nima qiladi?
4. „Hissang qo`sh” she`rini ayting?
5. Bolalar nimalar rasmini chizadilar?

„Nihol” guruhiga.

1. Eng avval qaysi gullar ochiladi?
2. „Tomchi haqida ertak” hikoyasida o`rik nima uchun zerikarli edi?
3. „Kuyni sevgan gul haqida ertak” Lola nima uchun ochilmadi?
4. „Ko`klam yomg`iri” she`rini ayting?
5. Kim oyisini rasmini chizdi?

Dam olish daqiqasi.

Barkamol avlod ham ma'naviy ham jismoniy yetuk bo'lishi kerak. Endi jisminiy yetukligimizni ko'rsatib savollarga javob berib kubokni olish uchun harakat qilamiz.

Savollar:

„G'uncha" guruhiga.

1. „Gullar suhbat" hikoyasidan „Navro'zgul" gapini topib o'qing ?
2. Qaldirg'och bolalarining haloskori.
3. Qoqigul yumilsa nima bo'ladi?
4. Yaxshudan bog' qolur-.....

„Jilg'a" guruhiga.

1. Nargis gulining gapini topib ayting?
2. Kamalakning paydo bo'lishi nimani bildiradi?
3. „Xaloskor" hikoyasidan Qaldirg'ochlarning gapi?
4. Yaxshi bilan yursang yetursan murodga-.....



„Nihol" guruhiga.

1. Oydin oyisiga nima sovg'a qildi?
2. Marvaridgul hikoyasidan Oydingning
3. Terakning kulchasi uchub yursa nima bo'ladi?
4. To'g'ri yursang uchib borib gul bo'lasan-.....

II-shart: Matn tuzish.

III-shart: Test ishlash.

1. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi qaysi shoir qalamiga mansub?

- a) P. Mo'min; b) A. Oripov; d) Q. Muhammadiy.

2. "Ish ishtaha ochar" hikoyasidan. Shavkat nima uchun ishtaha bilan ovqat yedi?

- a) Mehnat qilgani uchun; b) Yo'l yurgani uchun; d) O'ynagani uchun.

3. "Hunarli kishixor bo'lmas" ertagidan. Shahzodaning qaroqchilar qo'lidan qutilishiga nima sabab bo'ldi?

- a) boyligi b) shahzodaligi d) hunarmandligi

4. „Kuy sehri" ertagidan Gulpari yovni qanday yengdi?

- a) kuy bilan b) yolg'onchi bo'lgani uchun d) maqtonchoq bo'lgani uchun

5. „Yaxshilikka yomonlik" hikoyasidan. Tuya mingan kishini ilondan kim, qanday qutqardi?

a) do'sti, ilonni o'ldirib; b) tulki, ilonni aldab; d) ovchi, ilonni ushlab.

IV-shart: Sardorlar bellashuvi.

Tezkor savollar.

„G'uncha” guruhiga.

1. Bahorning birinchi qushi?
2. Sumalak so`zida nechta tovush bor?
3. Bahorgi teng kunlik?
4. Eng yaxshi insoniy fazilat?
5. Erta bahor qirmizginam
Tog`ga yoydi qizil gilam. (Lola)

„Jilg'a” guruhiga.

1. Bahorda birinchi ochiladigan gul?
2. Navro`z so`zida nechta tovush bor?
3. Insonparvarlik nima?
4. Martdan oldingi oy?
5. Yerda asta unadi,
Ilk bahorda kuladi. (boychechak)

„Nihol” guruhiga.

1. Bahorning darakchi qushi?
2. Ko`klam so`zida nechta tovush bor?
3. Navro`z so`zi qanday ma`no anglatadi?
4. Eng yoqimli qo`shiq?
5. Katta varaq, dumi taroq
Akasining ismi quroq.
(varrak)

Mustahkamlash: Bahorda nishonlanadigan bayramlar (suhbat)



Guruhlarning to`plagan ballarini e`lon qilish.

Vazifa: „Bahor” mavzusida hikoya yozish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I. A. Karimovning „Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” asari.
2. I. A. Karimovning „Sog`lom avlod–xalqimiz kelajagi” asari.
3. „Ma`rifat gazetasi.

